

**OLIY TA'LIM JARAYONIDA "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARINI
TAHLIL QILISHGA OID DARSLARDA TURLI BOTLAR VA ONLAYN
PLATFORMALARDAN FOYDALANISH**

Umurzakova Umidaxon Ahmadjon qizi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali O'zbek tili va gumanitar
fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi kunda zamonaviy axborot- telekommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimini ham egallab bormoqda, bu, albatta, pedagoglardan o'z mehnat faoliyatlariga zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. Ushbu maqolada Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarini tahliliga doir darslarni, umuman, har qanday asarlarni guruhda tahlil qilishga oid darslarni qiziqarli va tushunarli tashkillash maqsadida "Kahoot" onlayn platformasi va "Quiz bot" botidan foydalanish usullari va bu usullarning qanday samaralar berishi, natijalari, shuningdek, ular orqali olib borilgan darsda talabalarning faoliyati va tushunchalari qanday bo'lishi, "Kahoot" va "Quiz bot" tanlovlari asosida savollarni og'zaki tahlil qilish talabalarning jamoada ishlash va ijodiy tahlil qilish, chaqqonlik, tezkorlik, mantiqiy fikrlash, o'z fikrini bayon qila olish ko'nikmalarini shakllantirishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Abstract.

Аннотация. В данной статье

Kalit so'zlar. "Kahoot", "Quiz bot", uslub, tahlil, mantiqiy fikrlash, tahlil ko'nikmasi, guruhlarda ishlash, interfaol metodlar

Key words:


Ключевые слова:

KIRISH. Oliy ta'lim jarayonida turli zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish, darsni noan'anaviy usulda tashkillash, talabalarning tafakkurini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biridir. Hozirda barcha ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu jarayon pedagoglarning o'z faoliyatiga yangicha yondashuvlarini talab etadi. O'quv jarayoniga yangi texnika vositalarining joriy etilishi o'qituvchini siqib chiqarishga emas, balki faoliyatining murakkablashuviga xizmat qiladi, o'qituvchining rolini va vazifalarini o'zgartiradi. Didaktikaning asoschisi Yan Amos Komenskiy o'n yettinchi asrdayoq ta'limning "vaqt, fanlar


va uslublarni mohirona taqsimlashdan“ boshqa narsani talab qilmaydigan umumiy tartibini topishga harakat qilgan edi. Komenskiyning fikricha, idealda o‘qitishning yagona mukammal uslubi topilsa, “ hamma narsa toshlari to‘g‘ri muvozanatlangan soatdek aniq, faqat ana shunday mahorat bilan yaratilgan asbobda erishish mumkin bo‘lgan bexatolik bilan ilgariylaydi” [1]. Mohir pedagog interfaol metodlardan, o‘yinlardan, zamonaviy texnika vositalaridan unumli foydalanib, o‘z talabalari saviyasining yuksalishiga, o‘tilgan mavzuni batafsil tushunib, tahlil qila olishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Bu esa dars jarayonida o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi faol xatti-harakatlariga asoslanadi. Albatta, ayniqsa, badiiy asarlarni tahlil qilish darslarida turli onlayn platformalar va botlar samaralidir. Masalan, “Kahoot!” onlayn platformasi. Bu o‘qituvchilar va talabalarga ta’lim jarayonlarini qiziqarli tarzda tashkil etish uchun yordam beradigan onlayn platformadir. Unda o‘yinlar va viktorinalar orqali savollarga javob berish, guruh bilan birgalikda ishlash va g‘oliblarni tez aniqlash mumkin. Shuningdek, “Quiz bot” – bu savollar va javoblar asosida viktorina yoki testlar tashkil qilish uchun yaratilgan avtomatlashtirilgan bot.U asosan, Telegram, Discord yoki boshqa messengerlarda ishlatiladi.

USULLAR. T.Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asari tahliliga oid darslarda asarning umumiy mazmuni tahlil qilinib, asar qahramonlarining xarakterlari, ulardagi ramziylik haqida muhokamalar o‘tkaziladi, so‘ng darsning mustahkamlash qismida “Kahoot!” onlayn platformasidan foydalanishi mumkin, avvalo, o‘qituvchi darsdan avval unda test tuzib olishi lozim. Bu quyidagicha amalga oshiriladi. “Kahoot!” ga kirib, “Create” bo‘limi orqali yangi test yaratiladi. “Enter title” qismiga “Otamdan qolgan dalalar” asari tahlili bo‘yicha test” deb (1-rasm) sarlavha kiritamiz (yoki xohlagan mavzuga doir sarlavha kiritilishi mumkin). So‘ng “Add question” qismidan “Quiz” ni yoki xohlovchilar “True or false” ni tanlashi mumkin (2-rasm), savol kiritiladi va “Add answer” ga javoblar ham yoziladi (3-rasm), to‘g‘ri javobga “Correct answer” (4-rasm) tugmasi bosib qo‘yiladi. Hamma test savollari kiritib bo‘linganidan so‘ng testni saqlab olinadi. Testdan faqat onlayn usulda foydalanish mumkin, bunda darsda barcha talabalar onlayn tarzda “Kahoot!” platformasiga kirishlari lozim.

“Quiz bot” testini esa Telegram orqali tuziladi, bunda botga kirib, menyular bo‘limidan “Create new quiz” bosiladi, test sarlavhasi va tavsifi kiritiladi, so‘ng “Savol tuzish” tugmasi bosiladi, savol hamda javoblar kiritiladi, to‘g‘ri javobga esa “+” belgisi qo‘yiladi, shu tarzda barcha testni tuzib chiqiladi(xohlagancha test kiritish mumkin), “Done” bosilib, test vaqti tanlanadi (bunda 10 soniyadan 5 daqiqagacha belgilash mumkin), bot “Savollar va javob variantlarini aralashtirilsinmi?” degan savol beradi, bunda xohlovchilar savollarni yoki javoblarni aralashtirishni tanlashlari mumkin, shundan so‘ng test tayyor bo‘ladi, uni guruhlariga yoki boshqa shaxslarga ulashish mumkin.




1-rasm



2-rasm



3-rasm




4-rasm.

NATIJARLAR. “Kahoot!” orqali test tashkillanganda o‘quvchilar ushbu platformaga kirib, o‘zlariga yoqqan “name or character” ni tanlaydilar va test boshlanadi, har bir testda vaqt belgilangan bo‘lganligi uchun bu ulardan chaqqonlik bilan belgilashni ham talab etadi, hamma test ishlanganidan so‘ng g‘oliblar o‘rinlari bilan e‘lon qilinadi. Bu platforma o‘qituvchiga vaqtni boshqarishga ham yordam beradi.

“Quiz bot”ni esa talabalar biriktirilgan maxsus chat guruhga admin qilib kiritiladi va botda tuzilgan test tashlanadi. Bot avtomatik tarzda savollarni yuborishdan oldin foydalanuvchi

bilan muloqot qilib, ularga viktorina boshlanishini va testlar tugaganidan so'ng esa yakunlanishini xabar berib turadi, ishtirokchilarning to'g'ri javoblarini, umumiy test yechishga sarflagan vaqtlarini hisoblab, shu asosda g'oliblarni aniqlaydi. Bunday usullar qo'llanilishi orqali oddiy qog'ozda test ishlagandan ko'ra (barcha talabalarning testini o'qituvchi darsning o'zida tekshira olmaydi) ko'proq natijalarga erishilishiga guvoh bo'lamiz. Bu quyidagi gistogrammada ifodalanadi, bunda ko'k rangda darsning mustahkamlash qismida "Kahoot!" yoki "Quiz bot"dan foydalanib olib borilgan test, qizil rangda esa qog'oz variantda(an'anaviy usulda) olib borilgan test berilgan.



Bundan ma'lum bo'ladiki, "Kahoot!" yoki "Quiz bot"dan foydalanib olib borilgan test dars uchun foydaliroq.

MUHOKAMALAR. Tahlil darsida olingan bilimlar, asarning qahramonlari: Dehqonqul, Klara, Jamol Ketmon, Aqrab kabilarning alohida xususiyatlari, xarakterlarning to'qnashuvlaridagi o'ziga xosliklar, asarning nega sevib mutolaa qilinishiga oid mulohazalar "Kahoot!" yoki "Quiz bot" orqali berilgan testlar asosida mustahkamlanadi. Talabalar uchun esa an'anaviy dars jarayonidan ko'ra qiziqarliroq va bahslarga boy tarzda dars bo'lib o'tadi. Bular orqali berilgan savollarni tahlil qilish va o'z xatolarini anglash ularga yanada aniq javoblarga erishish va keyingi shunga o'xshash savollarda o'ylab javob berishga chorlaydi.

XULOSA. Oliy ta'limda asar tahliliga oid darslarning ("Otamdan qolgan dalalar" asari tahlili darsi asosida tushuntirildi) mustahkamlash qismida "Kahoot!" yoki "Quiz bot"dan foydalanib olib borilgan testlar nafaqat o'qituvchining faoliyatiga yordam beradi, balki vaqtni tejashga erishishini ta'minlaydi. Talabalarda esa guruh bilan ishlash, mantiqiy tahlil qilish, chaqqonlik, xatolarni tahlil qilish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Zero, D.B.Elkonin

aytganidek, “Ta’limdagi har bir metod o’rganuvchining shaxsiy rivojini ta’minlashi lozim” [2].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.T.Ahmedova. O’zbek tili o’qitish texnologiyalari va loyihalashtirish. Toshkent. “Navro’z” nashriyoti. 2016.12-13-betlar
2. Эльконин Д.Б. Психология игры. Москва. Педагогика. 1978.
3. U.A.Umurzakova. T.Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida qo’llanilgan milliy qiyofani aks ettiruvchi vositalar. Boshlang’ich ta’limning dolzarb masalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2024.